

TA'LIM KELAJAK POYDEVORI

Sobirjonov Ravshanbek Tolipjon o'g'li
Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limga xususan oliy ta'limga berilayotgan e'tibor va imkoniyatlar haqida batafsil so'z yuritilgan. Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda oliy ta'limga kirish uchun yoshlarmizga 20 ga yaqin imtiyoz berilgan bo'lib, ularning asosiy qismi davlat garnti asosida qabul qilinadi. Shu bilan birga talabalarga ham turli imtiyoz va imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda.

Kalit so'zlar: yoshlar, ta'lim, rivojlanish, imkoniyatlar, kelajak, oliygohlar.

Keyingi yillarda yoshlarimizning ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi axborot xizmatiga ko'ra, o'tgan 6 yil mobaynida oliy o'quv yurtlari soni 77 tadan 170 taga yetdi, ularga qabul 3,5 baravarga ortdi. Oliy ta'limda raqobatni qo'llab-quvvatlash va xususiy sektorni jalb qilish orqali 24 ta xorijiy hamda 27 ta nodavlat oliygohlar tashkil etildi. Shu asosda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 32 foizga oshirildi.

Oliy ta'limga qamrov darajasini oshirish maqsadida respublika OTMLariga 2022/2023 o'quv yilida qabul ko'rsatkichlari jami 197 ming 858 tani (shu jumladan 16 ming 933 ta magistratura) tashkil etib, o'tgan o'quv yiliga nisbatan 15 foizga (27 ming 203 nafar) oshirilgan. Joriy yilda 25 ta yangi oliygoh faoliyati yo'lga qo'yilib, jumladan, nodavlat oliy o'quv yurtlari 27 taga, xorijiy oliygohlar 31 taga, davlat oliygohlari esa 112 taga yetdi.

Universitetlar tarkibidagi 5 ta pedagogika instituti va 3 ta pedagogika fakultetlari negizida alohida Pedagogika institutlari, Toshkent davlat agrar universitetining Nukus hamda Termiz filiallari hamda Toshkent davlat texnika universitetining Termiz filiali negizida alohida institutlar tashkil etildi.

Mamlakatimizda o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni inobatga olgan holda, Andijon davlat chet tillar instituti va Namangan davlat chet tillar instituti tashkil etildi. Toshkent

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 06. June 2025

irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» milliy tadqiqot universiteti, uning Buxoro va Qarshi filiallariga alohida institut maqomi berildi. Shu bilan birga yurtimizda xorijiy yetakchi universitetlar filiallari tashkil etildi. Bunda Sankt-Peterburg davlat universiteti, Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universiteti, Qozon federal universiteti, Italiyaning Piza universiteti filiallarini alohida qayd etish lozim. Bunday salohiyatli xorijiy oliygohlarning faoliyati mahalliy oliygohlarning rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sirini ko‘rsatmoqda.

Joriy o‘quv yilida 200 ming nafardan ortiq yoshlarimiz oliygohlarga qabul qilinishi rejalashtirilgan. Bunda davlat grantlari 4 ming 636 taga yoki 10 foizga oshirildi. 2022 yilda oliy ta‘lim sohasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 38 foizga yetkazish maqsadida nodavlat oliy ta‘lim muassasalari soni 27 tadan, jami oliygohlar soni esa 170 tadan oshiriladi. Respublika oliy ta‘lim muassasalarini o‘quv adabiyotlari bilan ta‘minlash ta‘lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi 5 yilda 11 ming 990 nomdagi yangi avlod o‘quv adabiyotlari yaratildi hamda nashr etishga ruxsat berildi. Jumladan, joriy yilning 1 iyul holatiga 1 ming 527 nomda (shundan, darslik – 504 ta, o‘quv qo‘llanma – 1 023 ta) o‘quv adabiyotlari nashr etishga ruxsat berilgan. Shu bilan birga, so‘nggi olti yilda (2017-2022 yy) respublika oliy ta‘lim muassasalarining xorijiy universitetlar bilan o‘zaro hamkorlik dasturlari hamda “El-yurt umidi” jamg‘armasi grantlari doirasida 6 ming 151 nafar professor-o‘qituvchilar xorijiy oliy ta‘lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalariga malaka oshirish va stajirovka o‘tash uchun yuborildi. Ularning 2185 nafari Yevropa, 445 nafari Amerika, 1059 nafari Osiyo, 2462 nafari MDH mamlakatlariga yuborildi. Oliy ta‘lim tizimida ilmiy faoliyatni yaxshilash va salohiyatni oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda OTMda 800 mingga yaqin talabalarga 33 ming 63 nafar professor-o‘qituvchi ta‘lim bermoqda. Ilmiy darajaga egalar – 13 ming 2 nafar bo‘lib, shundan, fan doktori (DSc) – 2 ming 687, falsafa doktori (PhD) – 10 ming 315 nafarni tashkil etadi. Doktorlik dissertatsiya himoya ko‘rsatkichi esa 2017 yilga nisbatan 5,1 martaga oshirilib, ilmiy darajali pedagoglar ulushi respublika bo‘yicha 39,3 foizga yetkazildi.

2022 yilda kvotalar soni qariyb 100 foizga oshirilib, vazirlik tizimidagi oliygohlarga doktorantura uchun 1993 ta kvota (1704 ta PhD, 128 ta DSc, maqsadli doktoranturaga 156 ta PhD, 5 ta DSc) hamda stajyor-tadqiqotchilikka 308 ta kvota

ajratildi. bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida 5 ming 166 nafar doktorant va 379 nafar stajyor-tadqiqotchilar ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanmoqda. Hozirgi kunda 71 ta oliy ta'lim muassasasi va 88 ta ilmiy tashkilotlarda (jami 159 ta) doktorantura faoliyati yo'lga qo'yilgan 2021 yilda 1765 ta dissertatsiya ishi, jumladan, 244 ta fan doktori (DSc), 1521 ta falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish bo'yicha himoyalar amalga oshirildi. 2022 yilning 1-yarim yilligida respublika oliy ta'lim muassasalarida 929 ta dissertatsiya himoya qilindi.

Xalqaro standartlarga javob beradigan «O'zbekiston ilmiy jurnallari» onlayn portali (<https://uzjournals.edu.uz>) yaratildi va 41 ta ilmiy jurnal xalqaro talablarga moslashtirildi. Mazkur jurnallarda bugungacha jami 8 ming 404 ta maqola chop etildi aqola chop etildi hamda 108 ta davlatdan 335 mingdan ziyod yuklab olishlar kuzatildi.

Talabalarning ijtimoiy sharoitini yaxshilash va bandligini ta'minlash masalasi muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. bugungi kunga kelib, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan ishlash va qo'shimcha daromad topishga ehtiyoji mavjud jami 100 ming nafarga yaqin talabalardan 35 ming nafaridan ortig'i, shundan, 3525 nafar chin yetim, nogiron hamda ijtimoiy himoya reyestrdaagi daftarlarga kiritilgan talabalar ish bilan ta'minlandi. Muntazam ravishda oliy ta'lim muassasalarida ish beruvchilar bilan hamkorlikda turli mehnat yarmarkalari hamda biznes uchrashuvlar tashkil etish orqali bo'sh ish o'rinlariga talabalar ishga yo'naltirilib, ularning ish bilan bandligi ta'minlanmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari talabalari bilan hokim va rektor uchrashuvlari doimiy o'tkazilmoqda.

Darhaqiqat, balandparvozlklardan xoli bo'lgan bu ko'rsatkichlarda yoshlarning samarali oliy ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar mujassam.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Желамская В. А. Лингвистическая структура деловой документации на материале французского и итальянского языков: Дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2017
2. Беляева Е.И. Грамматика и прагматика побуждения: Английский язык. – Воронеж: Изд-во Воронежского государственного университета, 1992.